O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT
UNIVERSITETI

MINISTRY OF HEALTH OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF MEDICINE

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2

2. Farobiy str. Tashkent 100109

Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz, tta@exat.uz

18 aprel 2026 yil. **6962-son**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ilmiy kengashi yig‘ilishining 9-son BAYONI

Toshkent shahar 2026-yil «1» aprel

Raislik qiluvchi: **Sh.A. Boymuradov -** Toshkent davlat tibbiyot universiteti rektori, professor

Qatnashdilar: Toshkent davlat tibbiyot universitetining Ilmiy kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

K U N T A R T I B I :

1.2025-2026-O‘quv yili kuzgi semestrda talabalarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish va sifat ko‘rsatkichlarining tahlili. Muammolar va takliflar.

Ma’ruzachi – O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov.

2. Xalqaro fakulteti hisoboti.

Ma’ruzachi –Xalqaro fakulteti dekani D.X.Tursunov.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma’ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash.

Ma’ruzachilar – O‘quv-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i J.A.Anvarov, Ilmiy -pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan maqullandi.

Q A R O R Q I L A D I :

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “2025-2026 o‘quv yili kuzgi semestrda talabalarning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish va sifat ko‘rsatkichlarining tahlili. Muammolar va takliflar” mavzusi yuzasidan O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi

prorektor K.N.Xaitovning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

1.1. Universitetning HEMIS platformasiga fan resurslarini to‘liq yuklanishi, talabalarning o‘zlashtirish natijalari o‘z vaqtida kiritilishi, shuningdek, pedagoglar tomonidan elektron jurnalni o‘z vaqtida to‘ldirilishi ta’minlansin va nazoratga olinsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Registrator ofisi direktori F.B.Saloxiddinov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2026-yil aprel.

1.2. Barcha fanlar bo‘yicha HEMIS platformasiga davomat va baholarni o‘z vaqtida qo‘yilishi ta’minlansin va nazoratga olinsin.

Mas’ul:O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Registrator ofisi direktori F.B.Saloxiddinov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2026-yil aprel.

1.3. Talabalar bilimini baholashda Nizomga to‘liq amal qilinishi, mezonlariga to‘liq rioya qilinishi ta’kidlab o‘tilsin va nazoratga olinsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i J.B.Sattarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.4. Talabalarni mustaqil ish bajarishi, uni baholash to‘liq yo‘lga qo‘yilishi (MI bajarish tartibi, baholash) ta’kidlab o‘tilsin va nazoratga olinsin.

Mas’ul: O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i J.B.Sattarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.5. Barcha kafedra mudirlari tomonidan guruhlar kesimida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini muntazam ravishda muhokama qilinishi va o‘z vaqtida kerakli chora ko‘rishlari ta’kidlab o‘tilsin.

Mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.6. Universitetning professor-o‘qituvchilari o‘z malakalarini vaqtida oshirishlari, o‘quv jarayonida zamonaviy adabiyotlar, pedagogik va raqamlashtirilgan hamda sun’iy intellekt texnologiyalardan foydalanalishlari, shuningdek Universitetning kutubxonasidan unumli foydalanishlari kuchaytirilishiga alohida e’tibor qaratishlari ta’minlansin.

Mas’ul: kafedra mudirlari, barcha professor-o‘qituvchilar.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.7. Barcha fanlar bo‘yicha kafedralarda va simulyatsion markazda bajaraladigan amaliy ko‘nikmalar tasdiqlangan ro‘yxati bo‘yicha olib borilishi

nazoratga olinsin, shuningdek yetishmayotgan asbob-uskuna va jihozlar bo‘yicha takliflar kiritilsin.

Mas’ul: O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor K.N.Xaitov, O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Klinik modellashtirish kafedrasi mudiri D.A.Parpibayeva, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2026-yil aprel-may.

1.8. Barcha kafedralarda nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarining fanlarni o‘qitish uslubiyatini, jumladan zamonaviy raqamlashtirilgan pedagogik texnologiyalarni, sun’iy intellekt uslublarini o‘rganilishi va moslanishi asosida o‘z kafedralarida o‘quv-uslubiy jarayoniga tadbiq etilishi hamda keng qo‘llanishi ta’minlansin.

Mas’ul: Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.9. Ta’lim sifatini oshirish maqsadida kafedralarga jamoatchilik asosida xorijiy professor-o‘qituvchilarni o‘quv jarayoniga jalb etilishi kuchaytirilsin, jumladan xorijiy professor-o‘qituvchilar tomonidan ma’ruza, mahorat darslari, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.10. Barcha kafedralarda nufuzli xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda darslik, o‘quv hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yozilishi va nashr ettirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.11. Universitetning Yosh pedagoglar maktabining ishini, shuningdek, xorijiy guruhlarga ingliz tilida dars beradigan pedagoglarni soni va sifatini ko‘tarish maqsadida ularni Universitetning Til markazida tayyorlash jarayoni kuchaytirilsin, va yosh pedagoglarga o‘z pedagogik mahoratlarini oshirishda kafedra tomonidan shart-sharoitlar yaratilib berilishi ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Xorijiy fakultet dekani D.X.Tursunov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.12. Barcha kafedralarda iqtidorli talabalar bilan ishlash, ularni tashkil qilingan to‘garaklarga faol jalb etish, ilmiy hamda o‘quv-uslubiy izlanishlariga motivatsiyani kuchaytirish, jumladan, zamonaviy ilmiy va pedagogik texnologiyalardan (raqamlashtirish, sun’iy intellekt) foydalanish bo‘yicha ishlar faollashtirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.13. Ta’lim sifatini oshirish maqsadida o‘qitilayotgan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda talabalar tomonidan mobil telefon apparatlaridan foydalanishlari

nazoratga olinishi hamda on-line kuzatuvida ovozli kameralar o‘rnatilishi yo‘lga qo‘yilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi boshlig‘i A.K. Musaxonov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo‘yicha “Xalqaro fakultet hisoboti” mavzusi yuzasidan Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunovning hisoboti qoniqarli deb hisoblansin (ma’ruza matnda keltirilgan).

2.1. Rossiyaning yetakchi davlat tibbiyot universitetlari bilan birgalikda qo‘shma ta’lim dasturlarini amalga oshirish shartnomalarini yangilash ishlari amalga oshirilsin, hamda yangi yo‘nalishlar ochish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilsin.

Mas’ullar: Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov.

Muddat: 2026-yil sentabr.

2.2. Xalqaro fakultet tomonidan davlat va xorijiy ilmiy grantlar hamda loyihalar tanlovlarida faol ishtirok etishlari ta’minlansin.

Mas’ullar: Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov.

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

2.3. Xalqaro fakultetda ingliz tilida tahsil oluvchi talabalar hamda boshqa barcha qiziquvchilar uchun xorijiy mutaxassislarni o‘quv jarayoniga jalb etish ko‘lami va sifati oshirilishi ta’minlansin.

Mas’ullar: Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i N.Sh.Ergashev, Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i A.Suvonov.

Muddat: 2025–2026 o‘quv yili davomida.

2.4.Universitetda tahsil oladigan xorijiy fuqarolar geografiyasini yangi o‘quv yilida kengaytirish bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borilishi kuchaytirilsin.

Mas’ullar: Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor J.D.Israilov, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i N.Sh.Ergashov, Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi boshlig‘i A.A.Suvanov.

Muddat: 2025–2026 o‘quv yili davomida.

2.5. Xalqaro fakultet talabalariga (qo‘shma ta’lim dasturlari hamda chet - elliklar) dars beruvchi professor-o‘qituvchilarning o‘quv (chet tilida dars o‘tish), o‘quv–uslubiy (uslubiy xujjatlar, yakuniy nazorat test savollari, elektron jurnal holati va boshqalar) faoliyatlari chuqur tahlil qilish maqsadida ishchi guruh tuzilsin hamda har bir kafedra va kampus kesimida hisobotlar tayyorlansin.

Mas’ullar: O‘quv-uslubiy departament boshlig‘i F.X.Azizova, Xalqaro fakultet dekani D.X.Tursunov, Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i J.B.Sattarov, Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va monitoring boshqarmasi boshlig‘i D.D.Achilov, Kadrlar bo‘limi boshlig‘i B.A.Nurmuxamedov.

Muddat: 2025–2026 o‘quv yili davomida.

3. Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo‘yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova **professor** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.22 – Travmatologiya va ortopediya ixtisosligi bo‘yicha 1-son travmatologiya, ortopediya va HDJ kafedrasi mudiri t.f.d. M.Yu.Karimov, 14.00.38 – Sport tibbiyoti ixtisosligi bo‘yicha Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasi mudiri t.f.d. A.A.Usmanxodjaeva, **dotsent** ilmiy unvoniga talabgorlar 14.00.33 – Jamiyat salomatligi. Sog‘liqni saqlashda menejment ixtisosligi bo‘yicha 2-jamoat salomatligini va sog‘liqni saqlashda menejment kafedrasi dotsenti t.f.d.Z.A.Abduraximov, 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo‘yicha 1-son Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi dotsenti, t.f.d. Sh.Sh.Mallaev, 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo‘yicha 1-son Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi dotsenti, t.f.d. N.S.Sultanova, 14.00.21-Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha Xirurgik stomatologiya va dental implantalogiya kafedrasi dotsenti, t.f.n. Sh.Sh.Kurbanov, 14.00.17. – Farmakologiya va klinik farmakologiya ixtisosligi bo‘yicha Klinik farmakologiya kafedrasi dotsenti, t.f.n. Sh.A.Saidova, 14.00.17. – Farmakologiya va klinik farmakologiya ixtisosligi bo‘yicha Klinik farmakologiya kafedrasi dotsenti, t.f.n. L.J.Musaeva, 03.00.01 – Biokimyo (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo‘yicha 1-son tibbiy va biologik kimyo kafedrasi dotsenti, t.f.d.D.M.Azizova, 14.00.28 – Neyroxirurgiya ixtisosligi bo‘yicha 2-son travmatologiya, ortopediya, hdj va neyroxirurgiya kafedrasi dotsenti, PhD T.M.Axmediev, 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, PhD F.S.Umarova, 14.00.21-Stomatologiya ixtisosligi bo‘yicha Gospital ortopedik stomatologiya kafedrasi dotsenti, t.f.d.P.B.Gulmuxamedov, 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo‘yicha 3-son xirurgik kasalliklar kafedrasi dotsenti, t.f.d. Sh.B.Tog‘aev, 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo‘yicha Nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiy genetika kafedrasi dotsenti, PhD N.A.Mansurova - tomonlaridan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So‘ng saylov o‘tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i J.A.Anvarov va Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar bo‘yicha Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektori N.L.Asqarov, Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova so‘zga chiqdilar.

5.1. Universitetning barcha bakalavriat, magistratura hamda klinik ordinatura talabalari uchun Ijtimoiy fanlar kafedrasida o‘tiladigan darslar “Sayor dars” lar asosida

tashkil etilsin. Universitetning budjet mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlanishi bo‘yicha barcha shart-sharoitlar yaratib berilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Moliya-iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektori N.L.Asqarov, Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri S.D.Norqulov.

Muddat: 2026/2027-o‘quv yili davomida.

5.2. Toshkent davlat tibbiyot universitetida Talabalarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida:

Toshkent davlat tibbiyot universitetining Talabalarni rag‘batlantirish bo‘yicha komissiyasi to‘g‘risida Nizom 4-ilovaga muvofiq;

Toshkent davlat tibbiyot universitetining Talabalarni rag‘batlantirish Komissiyasi tarkibi 5-ilovaga muvofiq;

Toshkent davlat tibbiyot universitetida o‘quv semestri yakuni bo‘yicha fanlarni o‘zlashtirayotgan iqtidorli, jamoat ishlarida faol va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan talabalarni moddiy rag‘batlantirish Tartibi 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor N.L.Asqarov.

Muddat: 2026-yil aprel.

5.3. Atrof muhit gigiyenasi kafedrasi dotsenti, t.f.d. N.O.Axmadaliyeva rahbarligi ostida “3-7 yoshli bolalarda sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini shakllantirishga qaratilgan innovatsion mobil ilova yaratish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.4. Nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiy genetika kafedrasi mudiri, t.f.d. professor Y.N.Madjidova rahbarligida “Nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiy genetika” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.5. 1-son Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi mudiri t.f.d., professor G.K.Xudaykulova rahbarligi ostida “Xorijiy talabalarning akademik muhitga moslashuvini qo‘llab quvvatlash va ta’lim sifatini oshirishda sun’iy intellektga asoslangan assistent ishlab chiqish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.6. Onkologiya, onkogematologiya va radiatsion onkologiya kafedrasi assistenti U.A.Ismoilova rahbarligida “Onkologik bemorlarda davolash bilan bog‘liq gonadotoksiklik xavfini baholovchi sun’iy intellekt asosida prognoz modelini ishlab chiqish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.7. Atrof muhit gigiyenasi kafedrasi dotsenti t.f.n. X.A.Sadullayevarahbarligi ostida “Turar-joy massivlarida aerogen xavflarni kamaytirish va

ko‘kalamzorlashtirishni optimallashtirish asosida ekologik barqaror havo muhitini shakllantirish hamda aholi salomatligini himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.8. Onkologiya, onkogematologiya va radiatsion onkologiya kafedrasi dotsenti N.I.Tursunova rahbarligida “Gormon musbat sut bezi saratonida gormonorezistentlikni bashorat qiluvchi klinik-prognostik model ishlab chiqish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.9. Onkologiya, onkogematologiya va radiatsion onkologiya kafedrasi assistenti Dallo Salva rahbarligida “Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi kanserogen omillarga bog’liq saraton profilaktikasini baholashda yangi ommabop mobil ilova yaratish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.10. Onkologiya, onkogematologiya va radiatsion onkologiya kafedrasi dotsenti, PhD D.M.Almuradova rahbarligida “Sun’iy intellekt yordamida me’da saraton va saraton oldi kasalliklarini endoskopik vizual baholashda diagnostik platforma yaratish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.11. Onkologiya, onkogematologiya va radiatsion onkologiya kafedrasi PhD katta o‘qituvchisi I.S.Abdinazarova rahbarligida “Ayollarda bachadon tanasi saratoni va saraton oldi holatlarini aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsion klinik diagnostik platforma ishlab chiqish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.12. Gospital pediatriya, xalq tabobati kafedrasi PhD assistenti M.N.Alyaviya rahbarligi ostida “Bolalarda oksalaturiyali nefropatiyalarni erta tashxislash va prognozlashda maxsus noinvaziv klinik-laborator markerlarni tadbiq etish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.13. Gospital pediatriya, xalq tabobati kafedrasi professori, t.f.d. D.I.Axmedova rahbarligi ostida “Bolalarda kardiomiopatiyalarni erta tashxislash va bashoratlash klinik-instrumental va molekulyar-genetik markerlarini ishlab chiqish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: CV41675782

5.14. 1-son tibbiy radiologiya kafedrasi PhD assistenti M.R.Xayitboyeva rahbarligi ostida “Miya o‘smalarini MRT asosida radiomik tahlil yordamida differensial tashxislash va agressivlik darajasini aniqlash modeli ishlab chiqish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.15. Yuz-jag‘ jarrohli va Stomatologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi DSc D.T.Bobomuratova rahbarligida “O‘zbekiston aholisiga ko‘rsatiladigan stomatlologik tibbiy yordam sifatini oshirish sun’iy intellektga asoslangan electron platforma va mobil ilova yaratish, diagnostika prognozlash va profilaktika strategiyasini ishlab chiqish” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

5.16. Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi dotsenti, PhD Z.A.Sayfutdinova rahbarligida “Bepushtlikka chalingan erkaklarda spermatogenez buzilishining etiopatogenetik va molekular genetik tavsifi hamda prognostik ahamiyatini baholash” nomli grant loyihasini Innovatsion rivojlanish agentligining “Olima ayollar” tanlovi doirasida e’lon qilingan tanlovda ishtirok etish uchun Innovatsion rivojlanish agentligiga tavsiya etilsin.

Qaror bir ovozdan maqullandi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**